




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2023- YIL
YANVAR-IYUN

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(1- iyul holatiga ko'ra)

Xizmatlar sektori murakkab tuzilmaga ega bo'lib, iste'molchilarga har xil turdagi xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlardan iborat.

Ushbu korxonalar va tashkilotlarning faoliyat doirasi ancha keng bo'lib, ular mijozlarga turli xil tovarlar yetkazib beradi (savdo xizmatlari), ularning ishlashini ta'minlaydi (texnik xizmat ko'rsatish) yoki o'zlari xizmatlar ko'rsatadilar (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqalar).



- 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan, birlikda
- Yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan, birlikda

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **477 722** birlikka yetdi. Xizmatlar sohasida **335 360** birligi jalb etilgan bo'lib, bu ularning umumiy sonining **70,2** foizini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: **2019- yil 1- iyul** holatiga ko'ra xizmatlar sohasidagi mavjud korxonalar va tashkilotlarning ulushi **66,1** foizni yoki **245 943** birlikni tashkil etgan.

2023- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni **31 714** birlikni tashkil etib, jami yangi tashkil etilganlar umumiy sonining **66,5** foizi (**47 681** birlik) darajasida qayd etildi.

Taqqoslash uchun: **2019- yil yanvar-iyun** oylarida ularning soni **34 384** birlikni tashkil etgan.



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari


Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	212 840,6	100,0	112,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 794,6	2,7	109,6
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	9 787,2	4,6	107,4
Buxoro	8 980,7	4,2	109,1
Jizzax	4 564,1	2,1	108,7
Qashqadaryo	8 913,6	4,2	108,0
Navoiy	5 239,1	2,5	109,7
Namangan	8 327,9	3,9	110,1
Samarqand	13 215,7	6,2	110,4
Surxondaryo	7 137,9	3,4	108,4
Sirdaryo	2 798,0	1,3	108,2
Toshkent	14 507,5	6,8	107,3
Farg'ona	12 417,4	5,8	106,3
Xorazm	5 877,3	2,8	109,5
Toshkent sh.	85 751,8	40,3	117,5

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 879,8** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,9 %** ni tashkil etdi



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-iyun)



Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Resp.	5 879,8	109,9
Qoraqalpog'iston Resp.	2 924,4	108,2
Andijon	2 931,7	105,2
Buxoro	4 452,3	107,3
Jizzax	3 077,0	106,3
Qashqadaryo	2 547,5	105,6
Navoiy	4 940,7	107,5
Namangan	2 764,1	107,7
Samarqand	3 193,2	108,0
Surxondaryo	2 529,9	105,9
Sirdaryo	3 106,4	106,0
Toshkent	4 825,1	105,3
Farg'ona	3 107,8	104,1
Xorazm	2 991,0	107,6
Toshkent shahri	28 795,1	113,9

Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(fermer va dehqon xo'jaliklari bundan mustasno)

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonining (411 058 birlik) **65,8** foizi yoki **270 452** birligi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatadi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **30 322** birlikni yoki ularning umumiy sonining (**46 283** birlik) **65,5** foizini tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik hajmi **99 553,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **46,8** foizni, shu jumladan, **20,3** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-iyun oylarida bu ko'rsatkich **48 822,3** mlrd. so'mni tashkil qilgan. 2018- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,2** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

Hududlar	Kichik tadbirkorlikning hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Kichik tadbirkorlik xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi, <i>% da</i>	Hududda koʻrsatilgan jami xizmatlarning hajmidagi ulushi, <i>% da</i>
Oʻzbekiston Resp.	99 553,5	100,0	46,8
Qoraqalpogʻiston Resp.	2 940,1	3,0	50,7
Andijon	6 401,4	6,4	65,4
Buxoro	5 349,9	5,4	59,6
Jizzax	2 628,4	2,6	57,6
Qashqadaryo	5 933,5	6,0	66,6
Navoiy	2 957,6	3,0	56,5
Namangan	5 411,1	5,4	65,0
Samarqand	8 736,4	8,8	66,1
Surxondaryo	4 501,5	4,5	63,1
Sirdaryo	1 418,3	1,4	50,7
Toshkent	10 035,0	10,1	69,2
Fargʻona	7 989,7	8,0	64,3
Xorazm	3 521,6	3,5	59,9
Toshkent shahri	31 729,0	31,9	37,0

2023- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik hajmi **31 729,0** mlrd. soʻm miqdorida qayd etildi. Kichik tadbirkorlik xizmatlarining umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **31,9** % ga yetdi. Toshkent shahri boʻyicha koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida (**85 751,8** mlrd soʻm) ulushi **37,0** % ni tashkil etdi. Bunga mazkur hududda roʻyxatdan oʻtgan yirik korxonalarining koʻpligi sabab boʻlmoqda.

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan koʻrsatilgan xizmatlar hajmi **1 418,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi (**2 798,0** mlrd. soʻm) ushbu hududning ulushi **50,7** % ni tashkil etdi.




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	212 840,6	100,0	112,3
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	14 373,1	6,8	122,9
Moliyaviy xizmatlar	50 014,4	23,5	122,7
Transport xizmatlari	49 141,6	23,1	108,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>23 165,2</i>	<i>10,9</i>	<i>105,0</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	7 845,4	3,7	110,4
Savdo xizmatlari	50 023,6	23,5	107,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	5 337,5	2,5	109,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	9 107,4	4,3	119,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3 829,3	1,8	104,5
Ijara xizmatlari	3 307,0	1,5	101,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3 156,4	1,5	103,5
Shaxsiy xizmatlar	5 043,0	2,4	104,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3 428,4	1,6	97,1
Boshqa xizmatlar	8 233,5	3,8	110,7

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.




2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **2023-** yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **34 744,1** mlrd. so'mga oshib, **50 014,4** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **23,5** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **122,7 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **87,0 %** ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **55,6** foizni yoki **27 808,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan Buxoro viloyatida yuqori o'sish sur'ati **138,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun)


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da

Hududlar	Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi	Sug'urta bo'yicha xizmatlar ulushi	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar ulushi
O'zbekiston Resp.	87,0	8,9	4,1
Qoraqalpog'iston Resp.	88,0	9,7	2,3
Andijon	84,9	4,9	10,2
Buxoro	87,9	8,6	3,5
Jizzax	92,9	5,9	1,2
Qashqadaryo	88,7	7,3	4,0
Navoiy	90,8	7,7	1,5
Namangan	89,4	8,3	2,3
Samarqand	91,2	5,7	3,1
Surxondaryo	93,6	4,5	1,9
Sirdaryo	91,7	5,8	2,5
Toshkent	88,8	8,2	3,0
Farg'ona	89,0	8,8	2,2
Xorazm	87,0	10,5	2,5
Toshkent sh.	85,2	10,0	4,8

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)

O'zbekiston Resp.	50 014,4	Qashqadaryo	1 554,5
Toshkent sh.	27 808,7	Namangan	1 511,3
Farg'ona	2 752,3	Qoraqalpog'iston Resp.	1 387,8
Toshkent	2 270,5	Xorazm	1 359,5
Samarqand	2 174,9	Jizzax	1 309,6
Andijon	2 060,0	Navoiy	1 219,5
Buxoro	2 047,2	Sirdaryo	929,7
Surxondaryo	1 628,9		

2023- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 49 141,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 108,6 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 23,1 % ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17 380 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 5,2 % ini tashkil etdi. Ulardan 17 157 birlik (98,7 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – 47,1 %.

Hududlar kesimida transport xizmatlari




Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Oʻsish surʻati, <i>% da</i>
Oʻzbekiston Resp.	49 141,6	108,6
Toshkent sh.	8 395,3	118,5
Toshkent	3 267,2	100,1
Samarqand	3 075,1	105,1
Fargʻona	2 254,9	101,5
Andijon	1 944,8	101,8
Qashqadaryo	1 839,6	101,3
Buxoro	1 823,1	106,9
Namangan	1 526,7	108,7
Qoraqalpogʻiston Resp.	1 415,0	103,2
Xorazm	1 274,4	101,2
Surxondaryo	1 024,3	101,1
Navoiy	809,8	98,0
Jizzax	647,2	102,7
Sirdaryo	339,9	101,9

Oʻzbekiston geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Toshkent shahrida transport xizmatlari hajmi **4 676,7** mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **8 395,3** mlrd. soʻmni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **118,5** % ni tashkil etgan.

Sirdaryo viloyatida ushbu koʻrsatkich **339,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **101,9** % ni tashkil etdi.



2023-yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **23 165,2** mlrd. so'mga yetdi.

2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **105,0 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **10,9 %** ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **57,2 %**.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ushbu ko'rsatkich **57,3 %** ni tashkil etgan.

Yo'lovchi



Yuk




57,2 %

42,8 %

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-iyun** oylarida savdo xizmatlari hajmi **26 670,2** mlrd. soʻmga oshib, **50 023,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **107,0 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

155 132 birlik

1- iyul holatiga koʻra faoliyat koʻrsatayotgan

154 401 birlik

1- iyul holatiga koʻra kichik tadbirkorlik subyektlari

2023- yilning 1- iyul holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **46,3 %** yoki **155 132** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,5 foizi (154 401 birlik)** kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.





62,5 % Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlar

29,6 %



7,9 % Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar




2023- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **62,5 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlarining salmoqli qismi Qashqadaryo viloyatida – **84,2** foizni tashkil etdi. Toshkent shahrida bu ko'rsatkich **39,6** foizga yetdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

Hududlar	Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar	Ulgurji savdo xizmatlari	Chakana savdo xizmatlari
O'zbekiston Resp.	7,9	29,6	62,5
Qoraqalpog'iston Resp.	8,2	13,2	78,6
Andijon	8,1	9,8	82,1
Buxoro	6,6	23,9	69,5
Jizzax	12,0	9,2	78,8
Qashqadaryo	4,9	10,9	84,2
Navoiy	9,8	9,0	81,2
Namangan	5,5	18,2	76,3
Samarqand	8,0	16,8	75,2
Surxondaryo	4,4	12,6	83,0
Sirdaryo	8,7	22,6	68,7
Toshkent	8,9	20,3	70,8
Farg'ona	9,1	19,9	71,0
Xorazm	9,8	15,5	74,7
Toshkent sh.	8,2	52,2	39,6



2023- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **14 373,1** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, **oʻtgan yilning mos davriga** nisbatan oʻsish surʻati **122,9 %** ni tashkil etdi.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **6,8** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1- iyul holatiga koʻra “Axborot va aloqa” faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **9 858** birlikka yetdi, shundan **9 450** birligi (umumiy sonining **95,9 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y.

(yanvar-iyun)

2023- y.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	Oʻsish surʼati, <i>% da</i>
Oʻzbekiston Resp. ¹⁾	14 373,1	100,0	122,9
Qoraqalpogʻiston Resp.	328,2	2,3	121,6
Andijon	502,2	3,5	124,6
Buxoro	361,6	2,5	122,1
Jizzax	234,3	1,6	122,7
Qashqadaryo	452,5	3,1	123,6
Navoiy	211,4	1,5	124,3
Namangan	444,7	3,1	125,8
Samarqand	626,5	4,3	124,0
Surxondaryo	366,9	2,5	128,6
Sirdaryo	168,5	1,2	124,6
Toshkent	497,1	3,5	122,7
Fargʻona	669,9	4,7	121,2
Xorazm	324,5	2,3	124,8
Toshkent sh.	9 173,6	63,8	122,4

¹⁾ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Toshkent shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **6 456,8** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **9 173,6** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **63,8 %** ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **168,5** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Telekommunikatsiya xizmatlari (yanvar-iyun)



2023- yiling yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **8 302,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **3,9 %** ni tashkil etgan.



Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video maʼlumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi (2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. soʻmda	Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi, % da
Oʻzbekiston Resp. ¹⁾	8 302,9	57,8
Qoraqalpogʻiston Resp.	306,5	93,4
Andijon	481,4	95,9
Buxoro	334,8	92,6
Jizzax	204,6	87,3
Qashqadaryo	430,5	95,1
Navoiy	203,6	96,3
Namangan	414,3	93,2
Samarqand	586,6	93,6
Surxondaryo	344,7	93,9
Sirdaryo	162,5	96,4
Toshkent	428,8	86,2
Fargʻona	624,2	93,2
Xorazm	299,9	92,4
Toshkent sh.	3 470,7	37,8

¹⁾ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Muqobil to'plam


(2023- yil yanvar-iyun)

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	15 019,9	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	13 689,9	91,1
shu jumladan:		
Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar	518,3	3,8
Telekommunikatsiya xizmatlari	8 302,9	60,6
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	3 063,3	22,4
Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; web-portallar	1 158,6	8,5
Kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mir-lash bo'yicha xizmatlar	646,8	4,7
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	1330,0	8,9
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	314,5	23,6
Kino - videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	118,4	8,9
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	460,0	34,6
Boshqa axborot xizmatlari	437,1	32,9

2023- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **9 107,4** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **119,5 %** ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **46,7 %**ni tashkil etdi.




“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yil yanvar-iyun oylaridagi** ulushi **55,6 %** ni tashkil etdi. **Ma'lumot uchun: 2022/2023-** o'quv yili boshidagi oliy ta'lim muassasalari soni **191** birlikni, shu jumladan xorijiy – **26** birlikni tashkil etdi.





2023- yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **3 829,3** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,8 %** ini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.


2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **10 596** birlikni tashkil etdi, shundan **9 003** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

O'zbekiston Resp.	3 829,3	Xorazm	130,3
Toshkent sh.	1 775,6	Qashqadaryo	127,7
Toshkent	372,4	Surxondaryo	95,0
Farg'ona	249,9	Jizzax	85,5
Samarqand	248,4	Navoiy	71,0
Andijon	185,9	Qoraqalpog'iston Resp.	70,7
Namangan	184,4	Sirdaryo	62,4
Buxoro	170,1		

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi 4 983,2 mlrd. so'mga oshib, 7 845,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **27 559** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **27 442** birligi (umumiy sonining **99,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-iyun)





2023- yil yanvar-iyun oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **5 337,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,6 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


O'zbekiston Resp. ¹⁾		<i>(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)</i>	
	5 337,5	Surxondaryo	169,8
Toshkent sh.	2 767,3	Buxoro	169,2
Toshkent	448,2	Xorazm	141,8
Samarqand	315,6	Qoraqalpog'iston Resp.	130,2
Farg'ona	280,1	Navoiy	84,3
Andijon	239,0	Jizzax	82,9
Qashqadaryo	222,4	Sirdaryo	70,8
Namangan	215,0		

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **3 428,4** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,6** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **52,9** % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

O'zbekiston Resp.	3 428,4	Xorazm	91,7
Toshkent sh.	1 815,3	Namangan	89,4
Toshkent	294,4	Qoraqalpog'iston Resp.	80,4
Navoiy	256,9	Andijon	78,8
Samarqand	214,8	Buxoro	78,6
Qashqadaryo	131,9	Jizzax	58,1
Farg'ona	108,6	Sirdaryo	23,5
Surxondaryo	106,0		

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (yanvar-iyun)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **3 156,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, **2022- yilning mos davriga nisbatan** o'sish sur'ati **103,5 %** ni tashkil etgan.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyun)



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **1 597,3** mlrd. so'mga oshib, **3 307,0** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,5 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-iyun** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **55,2 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

